



Madina ABDULLAZODA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

E-mail: madinaabdullazoda0828@gmail.com

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

POLITENESS AS A SOCIAL-CULTURAL PHENOMENON

Annotation

This article explores the relationship of politeness and society. Society plays a significant role in shaping politeness in various cultures and languages. Understanding the social peculiarities that influence politeness is crucial for effective communication in diverse cultural contexts. This article aims to explore the relationship of society and politeness in various cultures.

Key words: Politeness, society, cultural differences, politeness theories, politeness markers

ВЕЛИЧНОСТЬ КАК СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЙ ФЕНОМЕН

Аннотация

В данной статье исследуется взаимосвязь вежливости и общества. Общество играет значительную роль в формировании вежливости в различных культурах и языках. Понимание социальных особенностей, влияющих на вежливость, имеет решающее значение для эффективного общения в различных культурных контекстах. Целью данной статьи является исследование взаимоотношений общества и вежливости в различных культурах.

Ключевые слова: Вежливость, общество, культурные различия, теории вежливости, маркеры вежливости.

XUSHMUOMALALIK - IJTIMOYIY-MADANIY HODISA SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqola xushmuomalalik va jamiyat munosabatlarini o'rganadi. Jamiyat turli madaniyatlar va tillarda xushmuomalalikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Xushmuomalalikka ta'sir qiluvchi ijtimoiy xususiyatlarni tushunish turli xil madaniy kontekstlarda samarali muloqot qilish uchun juda muhimdir. Ushbu maqola turli madaniyatlarda jamiyat va xushmuomalalik munosabatlarini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: o'dob, jamiyat, madaniy farqlar, xushmuomalalik nazariyalari, xushmuomalalik belgilari

XX asrning 70-80 yillarida ilk sotsiologik tadqiqotlar olib bora boshlangan. Bu yo'nalishdagi izlanishlar inson va jamiyat o'rtasida o'zaro bog'liqlik va zamon talabiga ko'ra o'zgarishlar asosida shakllangan. Xushmuomalalik hodisasi ham inson va uning atrofidagi sotsiumda shakllangani bois ilmiy izlanishlar mavzusiga aylandi. Xushmuomalalik hodisasini o'rganish uchun ilk qadamlar XX asrning 60-oxiri 70-yillar boshida boshlangan. Insonning qay darajada xushmuomalalik bilan munosabatga kirishishining turli xil ijtimoiy sabablari bor. Bu turfa xillik albatta so'zlovchining nutqida til vositida namoyon bo'ladi.

Xushmuomalalik hodisasini tadqiq qilgan mashhur olimlar Braun va Levinson bu hodisani quyidagicha tariflaydi: "Xushmuomalalik, bu keng ma'noda, inson tili va madaniyatida juda keng tarqalgan kommunikativ xatti-harakatlar shaklidir; shuningdek, u insoniyat jamiyatining universal hodisasi sifatida tasdiqlangan"[1] Anglashiladiki, xushmuomalalik insonning muloqotga kirishida muhim ahamiyat kasb etadi va u inson va u yashab turgan jamiyat madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Xushmuomalalik hodisasining lingvistik tadqiqi tarixini davrlashtirish[2] quyidagicha:

Grays yoki klassik yondashuv bosqichi.

Diskursiv (postmodern) yondashuv bosqichi.

Sotsiologik yondashuv bosqichi.

Birinchi bosqich Grays bosqichi yoki klassik yondashuv deb nomlanadi. Bu bosqich dastlab P.Grays, J.Lich va J.Ostin lingvistik falsafasining asosiy qoidalariga asoslangan asarlarni o'z ichiga oladi. Mazkur bosqich XX asrning ikkinchi yarimida tadqiqot ishlarini olib borgan R.Lakoff[3], P.Braun va S.Levinson[4]larning davriga mos keladi. Ular xushmuomalalikni "jamiyatda rivojlangan yaxshi xulq-atvor ko'rinishi" sifatida ta'riflaydi hamda xushmuomalalikni insonlar o'zaro muloqotidagi ziddiyatlarni kamaytirish maqsadida ham o'rganishi zarurligini ta'kidlashadi. Bu yondashuv vakillari xushmuomalalik kategoriyasini pragmatik jihatdan tahlil qilishga harakat qilgan.

P.Grays xushmuomalalik kategoriyasini nutqda qo'llanishi borasida quyidagi to'rtta qoidani taklif qiladi:

1) sifat qoidasi (rostgo'y bo'ling) – Maxim of Quality (Be true);

2) miqdor qoidasi (qisqaroq so'zlang) – Maxim of quantity (Be brief);

3) munosabat qoidasi (muvofig'aloqador bo'ling) – Maxim of Relation (Be relevant);

4) o'dob qoidasi (aniq bo'ling) – Maxim of Manner (Be clear)[5].

Yuqorida nomi zikr etilgan qoida turlari "Xushmuomalalik kategoriyasi qoidalari" mavzusi doirasida o'rganilgan bo'lsa-da, olim bu qoidalarni o'z jamiyati tamoyillaridan kelib chiqqan holda yoritganligini va bu tushuncha universal xushmuomalalikni nazarda tutganligini aniq isbotlay olmagan. Lekin ingliz olimi Robin Lakoff "What you can do with words: politeness, pragmatics and performatives" ("So'z nimalarga qodir: xushmuomalalik, pragmatika va uning ijrochilari") asarida yuqorida ko'rsatilgan to'rt qoidani izchil tahlil qilib, unga asoslangan holda xushmuomalalik tadqiqi uchun uch tamoyilni tavsiya etadi:

1) muloqotda bosim o'tkazmang va masofa saqlang;

2) muloqotda suhbatdoshga tanlov imkoniyatini bering va hurmat ko'rsating;

3) muloqotda tinglovchilarning o'zlarini erkin his qilishlarini ta'minlang va do'stona kayfiyat bering[6].

Ikkinchi bosqich lisoniy xushmuomalalik fenomenini o'rganishning diskursiv (postmodern) yo'nalishi bosqichi deb ataladi. Bu bosqich asosi P.Braun va S.Levinson[7]J.Lich[8]kabi olimlarning nazariyalarini qamrab oladi.

Shuni ta'kidlash joizki, xushmuomalalikka diskursiv (postmodern) nuqtayi nazardan yondashuv XX asrning 90-yillari boshida P.Braun va S.Levinsonlar tomonidan aniqlangan "Universal xushmuomalalik nazariyasi"ning turli kamchiliklariga ko'plab tilshunoslarning munosabati ko'rinishida vujudga kelgan.

Uchinchi bosqich so'nggi bir necha yil ichida tom ma'noda kuzatilgan sotsiologik (o'zaro) yondashuvda lingvistik xushmuomalalikni o'rganishdagi burilish bilan bog'liq.

Klassik xushmuomalalik nazariyalari va diskursiv yondashuvdan farqli o'laroq, sotsiologik (interaktiv) yondashuv xushmuomalalikni ijtimoiy amaliyot (social practice) sifatida tahlil qilishni nazarda tutadi.

Xushmuomalalik nafaqat tilshunoslar balki sotsiologlar, psixologlar tomonidan turli maqsadlarda tadqiqot obyekti sifatida o'rganilib kelinmoqda. Turli soha olimlar tomonidan "xushmuomalalik" tushunchasi o'rganilgan, qilingan izlanishlar natijasiga ko'ra, "xushmuomalalik" ga turlicha tariflar berilgan. Quyida tilshunoslar tomonidan berilgan izohlar beriladi.

Ilk marotaba xushmuomalalikni lingvistik nuqtai nazardan izohlagan olim Robin Lakof hisoblanadi. Uning fikricha: "Xushmuomalalik turli jamiyatlar tomonidan ishlab chiqilgan tushunchadir, uning vazifasi shaxsiy muloqotda kelishmovchiliklarni kamaytirishdan iboratdir"[9].

Braun va Levinson tilshunoslikda xushmuomalalikni ikki turga ajratgan holda tahlil qilgan olimlar sifatida tarixda qolgan. Ularning fikricha, xushmuomalalik yuz tahdidlarini yumshatish uchun foydalaniladigan murakkab tizimdir va u o'z navbatida ikkiga bo'linadi; salbiy xushmuomalalik va ijobiy xushmuomalalik[10].

Tilshunoslar xushmuomalalikning ikki turini farqlaydilar: mos ravishda birinchi darajali (Xushmuomalalik1) va ikkinchi darajali (Xushmuomalalik2). Bu farq lingvistik xushmuomalalik adabiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu sohadagi eng asosiy va uzoq davom etganlardan biri hisoblanadi. Boshqa tomondan, Freyzer xushmuomalalikning to'rtta tasnifini taklif qiladi: ijtimoiy-me'yor ko'rinish, suhbat-maksimal ko'rinish, yuzni saqlaydigan ko'rinish va suhbat-shartnoma ko'rinishi[11]. Xuddi shu to'rttalik tasnifni quyida muhokama qilinadigan birinchi va ikkinchi darajali xushmuomalalik asosida ikki toifaga bo'lish mumkin.

I. Birinchi darajali xushmuomalalik

Birinchi darajali xushmuomalalik ijtimoiy xushmuomalalik deb ataladi, bu Kasper so'zlariga ko'ra, "to'g'ri

ijtimoiy xulq-atvor va boshqalarga xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishni" anglatadi[12]. Freyzer birinchi darajali xushmuomalalikni odob-axloq qoidalari va ijtimoiy moslik (o'z terminologiyasida ijtimoiy norma ko'rinishi va suhbat shartnomasi ko'rinishi) deb biladi. Uotts birinchi darajali xushmuomalalik uchun muloyim xatti-harakatlar atamasini taklif qiladi. U xulq-atvorning ikkita aniq shaklini ajratib beradi: muloqotning buzilishiga olib keladigan odobsiz xatti-harakatlar va "boshqalar oldida shaxsning obro'sini oshiradigan" muloyim xatti-harakatlar[13].

II. Ikkinchi darajali xushmuomalalik

Ikkinchi darajali xushmuomalalikni Kasper "til harakatida ratsional funktsiyani ifodalash usullari"ning pragmatik tushunchasi sifatida ko'radi. Freyzerga kelsak, ikkinchi darajali xushmuomalalik lingvistik nuqtai nazardan (so'zlashuv-maksimal ko'rinish va yuzni tejash ko'rinishi) ko'riladi. Uotts fikricha, siyosiy xulq atamasi ikkinchi darajali xushmuomalalikni anglatadi. U siyosiy xulq-atvorni "ijtimoiy guruh shaxslari o'rtasidagi shaxsiy munosabatlarni o'rnatish va muvozanat holatida saqlash maqsadiga qaratilgan ijtimoiy-madaniy jihatdan aniqlangan xatti-harakatlar" deb ta'riflaydi, boshqacha qilib aytganda, Uottsning siyosiy xulq-atvori ijtimoiy muvofiqlikning kengroq kontseptsiyasi bo'lib, undan tor odoblilik tushunchasi kelib chiqishi mumkin.

Lich ikkinchi darajali xushmuomalalikni "strategik nizolardan qochish" deb ta'riflaydi, u "mojaroli vaziyatdan qochish uchun sarflangan sa'y-harakatlar darajasi" va "hamjihatlikni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash" bilan o'lchanishi mumkin. Bu strategik ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, mojarodan qochish insonning xushmuomala bo'lishining ongli harakatlari sifatida ko'riladi[14].

Xushmuomalalik tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda keng ko'lamda o'rganilayotgan masalalardandir. Shu kungacha turli nazariyalar, yondashuvlar, qarashlar orqali tadqiq qilingan va davom etmoqda. Xushmuomalalik inson yashab turgan jamiyatda o'z hayotiy ehtiyojlarini yetarli darajada qondirish uchun muhimligi bois va uning ijrosi til va nutq orqali namoyon bo'lganligi bois tadqiqotlar obyekt bo'lib kelmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Brown P., & Levinson S. Politeness Universal in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987
2. Леонтьев В.В. Лингвистическая (не)вежливость: к проблеме содержания категории. Экология языка и коммуникативная практика. 2016. № 1. С.73
3. Lakoff R.T. The logic of politeness or minding your P's and Q's. Papers from the Ninth Regional Meeting of Chicago Linguistic Society. – Chicago: Chicago Linguistic Society, 1973. – P. 292-305.
4. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. 2nd ed. – Cambridge: CUP, 1987. – 213 p. (P.345)
5. Grice P. (1975). Logic and Conversation. In P. Cole, & J. L. Morgan. (Eds.), Syntax and Semantics, Vol. 3, Speech Acts. – New York: Academic Press. pp. 41-58.
6. Турдиева Х.К. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи (Форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида). – Тошкент, 2020. Б.15.
7. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. 2nd ed. Cambridge: CUP, 1987. 348 p.
8. Leech G. Principles of Pragmatics. – L.: Longman, 1983. – 250 p.
9. Lakoff Robin. Language and Woman's Place. - New York: Harper and Row, 1975. - P. 64. Brown P., & Levinson S. Politeness Universal in Language Usage. - Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
10. Brown P., & Levinson S. Politeness Universal in Language Usage. - Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
11. Fraser B. Perspectives on Politeness. - Journal of Pragmatics, 14, 1990. - Pp. 219-236.
12. Kasper G. Politeness. In: Asher, R.E. (ed.)/Simpson, J.M.Y. (coordinating ed.). The encyclopedia of language and linguistics, vol. 6. - Oxford: Pergamon, 1994.
13. Watts R. Linguistic Politeness and Politic Verbal Behavior: Reconsidering Claims for Universality", in Watts, R., Ide S. and Ehlich K. (eds.), Politeness in Language: Studies in its History, Theory and Practice, Berlin: Mouton de Gruyter, 1992. - Pp 43--69.
14. Leech G. Explorations in Semantics and Pragmatics. - Amsterdam: Benjamins, 1980.